

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
TIZIMIDAGI XORIJIY TILLARGA IXTISOSLASHTIRILGAN
MAKTABINING 1-SINFIGA QABUL IMTIHONI MATERIALLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

**IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
TIZIMIDAGI XORIJIY TILLARGA IXTISOSLASHTIRILGAN
MAKTABINING 1-SINFIGA QABUL IMTIHONI MATERIALLARI
SPETSIFIKATSIYASI
2026/2027-o'quv yili**

Mazkur spetsifikatsiya 1-sinfga qabul qilinadigan nomzodlarni imtihondan o'tkazish, sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o'tkazilish tartibiga qo'yilgan talablarni belgilaydi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning maktabga tayyorgarlik bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va qobiliyatlarini kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida maktabga qabul qilinadigan qarorlar valid (asoslangan) bo'lishini ta'minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta'minlanadi.

II. Me'yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-maydagi "Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlariga o'quvchilarni saralab olish hamda qabul qilish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 214-son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab -internatiga o'quvchilarni saralab olish va qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizom.

III. Baholash qamrovi

Birinchi bosqich imtihon savollarining har bir varianti bitta to'g'ri va unga muqobil bo'lgan javobga ega 20 ta mantiqiy test topshiriqlaridan iborat. Test topshiriqlari uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari(Y1)*, *moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari(Y2)* va *ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)*) foydalaniladi. Test topshiriqlari uchun 60 minut vaqt beriladi. Har bir test topshirig'i baholanadigan bilim va ko'nikmalari ko'lamiga ko'ra 3,1/2,1/1,1 ballardan biri bilan baholanadi.

Ikkinchi bosqich har bir varianti 8 ta savoldan iborat bo'lgan og'zaki suhbat va amaliy topshiriqlardan iborat. Bu bosqichda har bir o'quvchiga 15 daqiqa vaqt beriladi. Suhbat uchun har bir to'g'ri javob uchun 5 ball dan jami 8 ta savol uchun 40 ball beriladi.

IV. Test topshiriqlarining mazmuni

Intellektual qobiliyat (mantiqiy fikrlash) darajasini aniqlash bo'yicha test topshiriqlari quyidagilar asosida shakllantiriladi:- Raven (noverbal intellektni aniqlash); - Ayzenk (intellektual koeffitsiyentni aniqlash); - Amtxauer (intellekt tuzilishini diagnostika qilish); - Veksler (IQ ni baholash, umumiy intellekt va uning tarkibiy komponentlarini diagnostika qilish). Test topshiriqlari o'quvchilarning intellektual qobiliyati (mantiqiy fikrlash) darajasini aniqlashga qaratilgan. Ular o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, mantiqiy ketma-ketlik va mantiqiy bog'liqlikni to'g'ri anglash, dalillarni solishtirish va ular o'rtasidagi aloqani aniqlash, tushunchalarni tasniflay olish qobiliyatini tekshiradi.

Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari(Y1), moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari(Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)*) foydalaniladi.

1-bosqich.

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan konstruktleri bo'yicha taqsimoti

1-jadval

<i>Mazmun soha</i>	<i>Konstruktler</i>	<i>Savollar soni</i>	<i>Ball</i>
Atrofimizdagi olam	-tabiatda bo'ladigan voqea va hodisalar ketma-ketligini aniqlaydi;	1 ta	1,1
	- jonli, jonsiz tabiat xususiyatlarini farqlay oladi va ularni tasniflaydi:	1 ta	2,1 1,1
	- jonli, jonsiz tabiat xususiyatlarini farqlaydi;		
Matematik savodxonlik	- yassi shakllarning fazoda joylashishini aniqlash:	1 ta	2,1
	- yassi shakllarni aniqlaydi;		1,1
	- obyektlar muhim belgi va xususiyatlari o'rtasidagi munosabat va bog'liqliklarni aniqlaydi:	1 ta	2,1 1,1
	- obyektlar o'rtasidagi munosabatni aniqlaydi;		
	-shakl va obyektlarga xos xususiyatlarni birlashtirib, obyektlarning yaxlit qiyofasini yaratadi va mantiqiy bog'liqlikni o'rnatadi:	1 ta	3,1
	- shakl va obyektlarga xos xususiyatlarni birlashtirib, obyektlarning yaxlit qiyofasini yaratadi;		2,1
	- shakl va obyektlarga xos xususiyatlarni birlashtiradi;		1,1

	-sonli boshqotirmalarning qonuniyatini topadi;	1 ta	1,1
	-sonli boshqotirmalarda predmetlar sanog'ini aniqlay oladi;	1 ta	1,1
	-sonlar qatorida raqamlar mantiqiy ketma-ketligi xususiyatlarini aniqlaydi;	1 ta	2,1
Abstrakt mantiq	-tasavvurda shakl va obyektни muayyan burchak ostida aylantirish bo'yicha mulohaza qiladi: - tasavvurda shakl va obyektни muayyan yo'nalishini aniqlaydi; - namunadagi shakl va obyektни aniqlaydi;	1 ta	3,1 2,1 1,1
	-obyektlarning joylashuidagi mantiqiy ketma-ketligini aniqlaydi: - obyektlarning joylashuvini aniqlaydi;	1 ta	2,1 1,1
	- keltirilgan namuna asosida tasvirning simmetrik shaklini aniqlaydi: - keltirilgan namuna asosida tasvirning shaklini aniqlaydi;	1 ta	2,1 1,1
	- hajmli shakllarni xayolan tarkibiy qismlarga ajratib, sanaydi;	1 ta	1,1
	- predmetlar, voqealar va ko'rinishlar o'rtasidagi oddiy aloqalarni tushunish va ularni yaxlit bir butunlik sifatida ajrata oladi: - predmetlar, voqealar va ko'rinishlar o'rtasidagi oddiy aloqalarni tushunib, yaxlit bir butunlikni anglaydi; - predmetlar, voqealar va ko'rinishlar o'rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi;	1 ta	3,1 2,1 1,1
	- vizual elementlar orasidagi qonuniyat asosida yetishmayotgan qismini mantiqan tanlaydi: - elementlar orasidagi qonuniyatni aniqlaydi; - elementdagi yetishmayotgan qismini topadi;	1 ta	3,1 2,1 1,1
	- o'zbek alifbosidagi harflar shaklining mantiqiy qonuniyatlarini aniqlaydi: - o'zbek alifbosidagi harflar shaklini aniqlaydi;	1 ta	2,1 1,1
	- rasmda aks etgan o'zbek tiliga oid tovush/harfni taniydi, tovushga bog'liq so'zlarni aniqlaydi, shu so'zlar asosida noma'lum so'zni topadi:	1 ta	3,1 2,1
Verbal mantiq			

	- rasmda aks etgan o'zbek tiliga oid tovush/harfni taniydi, tovushga bog'liq so'zlarni aniqlaydi; - rasmda aks etgan o'zbek tiliga oid tovush/harfni taniydi;		1,1
	- rasmda aks etgan ingliz tiliga oid tovush/harfni taniydi, tovushga bog'liq so'zlarni aniqlaydi, shu so'zlar asosida noma'lum so'zni topadi: - rasmda aks etgan ingliz tiliga oid tovush/harfni taniydi, tovushga bog'liq so'zlarni aniqlaydi; - rasmda aks etgan o'zbek tiliga oid tovush/harfni taniydi;	1 ta	3,1 2,1 1,1
	- rasmda aks etgan o'zbek tiliga oid tovush/harfni taniydi, tovushga bog'liq so'zlarni aniqlaydi, shu so'zlar asosida noma'lum harfni topadi: - rasmda aks etgan o'zbek tiliga oid tovush/harfni taniydi, tovushga bog'liq so'zlarni aniqlaydi;	1 ta	2,1 1,1
	- so'z ma'nolari o'rtasidagi bog'liqlik asosida mantiqiy qonuniyatlarini o'rnatish olish: - so'z ma'nolarini farqlay oladi;	1 ta	2,1 1,1
	- berilgan shart asosida so'zdagi tovushlar o'rni va sonini topish;	1 ta	2,1
Jami		20 ta	44

2-bosqich.

Suhbat savollarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

<i>Mazmun soha</i>	<i>Bilim va ko'nikmalar</i>	<i>Savollar soni</i>
Ijtimoiy-hissiy rivojlanish. "Men" tamoyili.	- oilasi, davlati, millati, tili va madaniyatining muhim elementlarini bilish, hamda ularga o'z munosabatlarini hissiyotlari orqali ifoda eta olish;	1
Yozuv mashqlari	-harakat yo'nalishlarini tushungan holda qog'ozga rasmlarni to'g'ri joylashtirib, nuqta va chiziqlarni birlashtirib rasm chizish;	1
Ijodiy rivojlanish. Nutq. Muloqot.	- atrof-muhit haqidagi ma'lumotlarni qo'llab, turli predmetlardan kompozitsiyalar yaratish; - talab etilayotgan muammoni aniqlab,	6

	unga yechim sifatida turli predmetlarni qo‘llaydi, ularni qo‘llashda g‘oyalar taklif etish; - berilgan tasvir yoki so‘zlarga qarama-qarshi, yaqin ma’noli so‘zlarni moslash, ko‘p ma’noli so‘zlarni turli ma’nolarini farqlash; - bo‘g‘inlar yordamida so‘z va shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish; - syujetli rasm asosida hikoya tuzish; -badiiy asarni qayta hikoyalash;	
--	---	--

VI. Suhbat bosqichining o‘tkazilish tartibi

1. Tanlovning ikkinchi bosqichi suhbat shaklida o‘tkaziladi.
2. Talabgorlar 8 ta savoldan iborat biletlardan birini tanlaydi.
3. Biletni tanlagach, tayyorlanish uchun alohida vaqt berilmaydi.
4. Javob berish uchun 15 daqiqa vaqt beriladi. Zarur bo‘lsa, qo‘shimcha savollar berilishi mumkin.
5. Har bir topshiriq 5 ballik tizimda baholanadi. Bolalarning umumiy ko‘nikmalari 40 ballgacha baholanadi.

Suhbat jarayonida nomzodlarning ijtimoiy-hissiy rivojlanish darajasini “Men” tamoyili asosida bayon qila olish, nutqni tinglash, tushunish, so‘zlash va muloqot qilish, yozuv mashqlarini bajarish, muammoli yechimlarda qaror qabul qilish ko‘nikmalari bilan baholanadi.

BAHOLASH RUBRIKASI

Indikatorlar /baholash mezonlari	5 ball (yuqori)	4 ball (yaxshi)	3 ball (o'rta)	2 ball (qoniqarli)	1 ball (past)
“Men” tamoyili asosida ijtimoiy- hissi rivojlanishni ifodalanganligi	O'zi, oilasi, davlati, millati, tili haqida ma'lumotlarni yo'naltiruvchi savollarsiz gaplarni o'zaro bog'lab fikrini aniq, ravon bayon etib, hissiy munosabati, orzularini tushunarli ifodalasa	O'zi, oilasi, davlati haqida ma'lumotlarni yo'naltiruvchi savollar bilan gaplarni o'zaro bog'lab bayon etib, ammo hissiy munosabatlarini sodda yoki qisqa ifodalasa	O'zi, oilasi ma'lumotlarnigina yo'naltiruvchi savollarsiz aytib, hissiy munosabatini qisqa ifodalasa	O'zi va oilasi haqidagina ma'lumotlarni yo'naltiruvchi savollar bilan aytsa, ammo hissiy munosabatlarni ayta olmasa	O'zi haqidagina ma'lumotlarni yo'naltiruvchi savollar bilan ham qisqa yoki noto'g'ri aytsa
Yozuv mashqlarining aniqliligi	Namunadagi tasvirni nuqtali yoki katakli maydonga to'g'ri joylashtirib, harakat yo'nalishini to'g'ri, tartibli aks ettira olsa; yozuv quollaridan ergonomik jihatdan to'g'ri tutsa, topshiriqdagi tasvirni aniq chizib bera olsa	Namunadagi tasvirni nuqtali yoki katakli maydonga to'g'ri joylashtirib, yozuv quollaridan ergonomik jihaddan to'g'ri tutsa, topshiriqdagi tasvirni chizishda 1 ta xato qilsa, harakat yo'nalishini to'g'ri, tartibli aks ettira olmasa	Namunadagi tasvirni nuqtali yoki katakli maydonga to'g'ri joylashtirib, yozuv quollaridan ergonomik jihaddan to'g'ri tutsa, topshiriqdagi tasvirni chizishda 2-3 ta xatoliklarga yo'l qo'ysa, harakat yo'nalishini to'g'ri, tartibli aks ettira olmasa	Qog'ozdagi tasvirni nuqta yoki kataklar orasiga joylashtiriladi 4-5 ta xatoliklarga yo'l qo'yib, harakat yo'nalishini to'g'ri, tartibli aks ettira olmasa, ammo yozuv quollaridan ergonomik jihatdan to'g'ri tutsa	Topshiriqdagi tasvir yo'nalishlarida xato qilsa, yoki uni tushunmay bajara olmasa
Nutq, Muloqot. Ijodiy topshiriqlarni shartlariga mosligi	Topshiriqlarda ko'rsatilgan muammo yechimini aniqlab, mantiqan fikrlab, ushbu muammo yechimi uchun eng qulay, noodatiy va to'g'ri yo'lni tanlash; predmetlardan unumli foydalanib talab etilgan tasvirni yarata olsa; so'z, gap, bog'lanishli matnni yo'naltiruvchi savollarsiz tuzsa, fikrlarini aniq, tizimli, to'liq xulosalab, o'z hissiyotlarini izohlagan tarzda bajargan bo'lsa	Topshiriqlarda ko'rsatilgan muammo yechimini aniqlay olsa, yechimni odatiy usullar bilan ko'rsatsa, berilgan ayrim predmetlardagina foydalanib biron bir tasvir yarata olsa; so'z, gap, bog'lanishli matnni yo'naltiruvchi savollarsiz tuzsa, fikrlarini aniq xulosalab, ammo o'z hissiyotlarini izohlay olmasa	Topshiriqlarda ko'rsatilgan muammo yechimni yo'naltiruvchi savol yordamida ayrim predmetlardagina foydalanib tasvir yarata olsa, ammo muammo yechimini aniqlay olmasa; so'z, gap, bog'lanishli matnni yo'naltiruvchi savollar yordamida tuzsa, fikrlarini qisqa bayon etsa, ammo o'z hissiyotlarini izohlay olmasa	Topshiriqlarda ko'rsatilgan muammoni ayrim predmetlardagina foydalanib muammo yechimiga mos bo'lmagan tasvir yaratsa; so'zni yo'naltiruvchi savollar yordamida aniqlasa; gap, bog'lanishli matnni yo'naltiruvchi savollar yordamida ham tuza olmasa, fikrlarini bayon eta olmasa	Topshiriqdagi ko'rsatilgan muammoni aniqlay olmasa; barcha so'zlarni xato aniqlasa yoki uni tushunmasa va bajara olmasa

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.